


**International Congress on Economics, Management and Business Studies**
Hosted Online from New York, USA
Date: 23rd October, 2026
Website: https://econferencia.com

# MOLIYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARI: MAQSADI, VAZIFALARI HAMDA SIFAT JIHATIDAN TAVSIFI

Azimova Hulkar Egamberdiyevna
“Buxgalteriya hisobi va auditi” kafedrasi
dotsent v.b.Qarshi davlat texnika universiteti
ORCID: 0009-0007-4468-6533. tel. +99850 040 55 54

**Annotatsiya**
Maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) ning maqsadi, vazifalari va moliyaviy ma’lumotlarning sifat tavsiflari tizimli tahlil qilingan. Tadqiqot normativ hujjatlar va xalqaro standartlar mazmunini tahlil qilish, qiyosiy va tizimli yondashuv metodlariga asoslangan. Natijalarda MHXSning uch darajali maqsadi, oltita asosiy vazifasi va asosiy hamda takomillashtiruvchi sifat tavsiflari tizimlashtirilgan. Muhokamada milliy va xalqaro yondashuvlar qiyoslanib, O‘zbekistonda standartlarni joriy etishning muammolari va amaliy tavsiyalar keltirilgan.

**Kalit so‘zlar:** moliyaviy hisobot, MHXS, IASB, konseptual asoslar, ahamiyatlilik, to‘g‘ri aks ettirish, taqqoslanuvchanlik.

**Аннотация**
В статье проведён системный анализ цели, задач международных стандартов финансовой отчётности (МСФО) и качественных характеристик финансовой информации. Исследование основано на контент-анализе нормативных документов и стандартов, сравнительном и системном подходах. В результатах систематизированы трёхуровневая цель МСФО, шесть основных задач и основополагающие и улучшающие качественные характеристики. В

обсуждении сопоставлены национальный и международный подходы, представлены проблемы внедрения МСФО в Узбекистане и практические рекомендации.

**Ключевые слова:** финансовая отчётность, МСФО, СМСФО, концептуальные основы, уместность, достоверное представление, сопоставимость.

**Abstract**

The article presents a systematic analysis of the objective and tasks of International Financial Reporting Standards (IFRS) and the qualitative characteristics of financial information. The study relies on content analysis of regulatory documents and standards, together with comparative and systematic approaches. The results systematise the three-level objective of IFRS, six core tasks, and the fundamental and enhancing qualitative characteristics. The discussion compares national and international approaches and offers challenges and practical recommendations for IFRS implementation in Uzbekistan.

**Keywords:** financial reporting, IFRS, IASB, conceptual framework, relevance, faithful representation, comparability.

## KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida kapital bozorlarining integratsiyalashuvi, transmilliy kompaniyalar sonining ortishi va xorijiy investitsiyalarning jalb etilishi moliyaviy ma’lumotlarni yagona til-xalqaro standartlar asosida taqdim etishni taqozo etmoqda. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS, International Financial Reporting Standards – IFRS) aynan shu ehtiyojga javoban shakllangan bo‘lib,

ularning nazariy asosini Moliyaviy hisobotning konseptual asoslari tashkil etadi.[1] Xalqaro standartlarni ishlab chiqish tarixi 1973-yilda Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari qo‘mitasi (IASC) tuzilishi bilan boshlangan. 2001-yilda uning o‘rniga Xalqaro buxgalteriya hisobi standartlari kengashi (IASB) faoliyat boshladi va u MHXS nomi ostida yangi standartlarni chiqara boshladi.[2] Bugungi kunda MHXS yuzdan ortiq yurisdiksiyada jamoat manfaatlariga daxldor kompaniyalar uchun majburiy yoki ruxsat etilgan hisobot tizimi sifatida qo‘llanilmoqda. Ilmiy adabiyotlarda MHXSning iqtisodiy samaralari, xususan, hisobot sifatining oshishi, kapital qiymatining pasayishi va axborot assimmetriyasining kamayishi masalalari keng muhokama qilingan.[3] Biroq milliy iqtisodiyotlarda, jumladan O‘zbekistonda, standartlarning maqsadi, vazifalari va sifat tavsiflarini yagona tizim sifatida o‘rganish hamda ularni amaliyotga bog‘lash yetarlicha yoritilmagan. Shu bois mazkur tadqiqotning maqsadi – MHXSning maqsadi, vazifalari va moliyaviy ma’lumotlarning sifat tavsiflarini tizimli tahlil qilish va O‘zbekiston sharoitida ularni qo‘llash bo‘yicha xulosalar shakllantirishdir. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi: (1) MHXSning maqsadini aniqlash; (2) uning asosiy vazifalarini tasniflash; (3) sifat tavsiflarini tizimlashtirish; (4) milliy qonunchilik doirasidagi o‘tish jarayonini baholash.

**TADQIQOT METODLARI.** Tadqiqot sifat yondashuviga asoslangan bo‘lib, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro standartlar matnlarini mazmunan tahlil qilish (content analysis) metodidan foydalanildi. Birlamchi manba sifatida IFRS Konseptual asoslarining 2018-yilgi tahriri, IASB Konstitutsiyasi va IAS 1 standarti

[1]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – Kirish qismi (Introduction).
[2]IFRS Foundation. Who we are: History of the IFRS Foundation and the IASB. – London: IFRS Foundation. URL: www.ifrs.org
[3]Barth M.E., Landsman W.R., Lang M.H. International Accounting Standards and Accounting Quality // Journal of Accounting Research. – 2008. – Vol. 46, No. 3. – P. 467–498.

tanlandi.[4] Ikkilamchi manbalar sifatida xalqaro darsliklar va ilmiy maqolalar o‘rganildi. Tadqiqot jarayonida quyidagi usullar qo‘llanildi: tizimli va qiyosiy tahlil – milliy hamda xalqaro yondashuvlarni solishtirish uchun; analiz va sintez – sifat tavsiflarini guruhlash uchun; induksiya va deduksiya – xususiy holatlardan umumiy xulosalar chiqarish uchun; jadval shaklida tizimlashtirish – natijalarni ko‘rgazmali taqdim etish uchun. O‘zbekistondagi huquqiy asoslar sifatida «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun va MHXSga o‘tishga oid Prezident qarori tahlil qilindi.[5] Tadqiqotning cheklovi shundaki, unda empirik (statistik) ma’lumotlar emas, normativ va nazariy manbalar tahlil qilindi.

**TAHLIL VA NATIJALAR.** Tahlil natijalariga ko‘ra, MHXS bir necha darajadagi maqsadga ega. Birinchi daraja -standartlarni ishlab chiquvchi organning maqsadi: jamoat manfaatlariga xizmat qiluvchi, yuqori sifatli, tushunarli va butun dunyoda qabul qilingan yagona standartlar to‘plamini yaratish.[6] Bunday standartlar kapital bozorlarida shaffoflik, hisobdorlik va iqtisodiy samaradorlikni ta’minlashga qaratilgan.

Ikkinchi daraja -umumiy maqsadli moliyaviy hisobotning maqsadi. Konseptual asoslarga ko‘ra, u tashkilot haqida mavjud va potensial investorlar, kreditorlar hamda boshqa qarz beruvchilar uchun resurslarni taqdim etish bo‘yicha qaror qabul qilishda foydali ma’lumotlarni taqdim etishdan iborat.[7] Bunday qarorlar o‘zlik va qarz instrumentlarini sotib olish, sotish yoki ushlab turishni, shuningdek, kredit berish va boshqa moliyalashtirishni o‘z ichiga oladi.

Uchinchi daraja- boshqaruv natijadorligini baholash (stewardship). Hisobot foydalanuvchilarga tashkilot rahbariyati resurslardan qanchalik samarali va

[4]IASB. IAS 1 «Presentation of Financial Statements». – London: IFRS Foundation.
[5]O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni.
[6]IFRS Foundation. Constitution. – London: IFRS Foundation. – IASB maqsadlari to‘g‘risidagi bo‘lim.
[7]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 1-bob (Chapter 1), 1.2-band.

mas'uliyat bilan foydalanganini baholash imkonini beradi.[8] Shunday qilib, MHXSning maqsadi faqat axborotni qayd etish bilan cheklanmay, iqtisodiy qarorlarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilganligi aniqlandi.

Maqsaddan kelib chiqib, MHXSning asosiy vazifalari tasniflandi va 1-jadvalda keltirildi. Birinchi vazifa – hisobot tayyorlashning yagona tamoyillarini belgilash orqali turli mamlakatlar kompaniyalari hisobotlarining o'zaro taqqoslanuvchanligini ta'minlash. Ikkinchi vazifa- tashkilotning iqtisodiy resurslari, majburiyatlari va ularning o'zgarishi haqida to'liq hamda ishonchli ma'lumot berish.[9]

**MHXSning asosiy vazifalari va ularning mazmuni.1-jadval**

| № | Vazifa | Mazmuni |
|---|---|---|
| 1 | Uyg'unlashtirish | Turli mamlakatlarda hisobot tayyorlashning yagona qoidalarini belgilash |
| 2 | Axborot sifati | To'liq, ishonchli va foydali ma'lumotni taqdim etish |
| 3 | Shaffoflik | Axborot assimmetriyasini kamaytirish, hisobdorlikni oshirish |
| 4 | Kapital jalb etish | Investorlar ishonchini mustahkamlash va kapital qiymatini kamaytirish |
| 5 | Islohot vositasi | Milliy hisob tizimlarini xalqaro amaliyotga yaqinlashtirish |
| 6 | Uslubiy asos | Tayyorlovchilar, auditorlar va nazoratchilar uchun yagona mezon |

*Manba: muallif tomonidan umumlashtirilgan.*

Uchinchi vazifa-axborot assimmetriyasini kamaytirish, ya'ni tayyorlovchilar va foydalanuvchilar o'rtasidagi ma'lumotga ega bo'lish tafovutini qisqartirish. To'rtinchi vazifa – investorlar ishonchini mustahkamlash orqali kapital jalb etish xarajatlarini kamaytirish va ko'p millatli guruhlarda konsolidatsiyani

[8]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 1-bob, 1.3–1.4-bandlar.
[9]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 1-bob, 1.12–1.21-bandlar (financial position and performance).

soddalashtirish.[10] Beshinchi vazifa – milliy hisob tizimlarini isloh qilish vositasi bo‘lish; oltinchi vazifa – tayyorlovchilar, auditorlar va nazorat organlari uchun yagona uslubiy asos yaratish.

Moliyaviy ma’lumot foydali bo‘lishi uchun ma’lum sifat tavsiflariga javob berishi shart. Konseptual asoslar bu tavsiflarni ikki guruhga – asosiy (fundamental) va takomillashtiruvchi (enhancing) tavsiflarga ajratadi.[11] Tavsiflarning tizimli ko‘rinishi 2-jadvalda berilgan.

**Moliyaviy ma’lumotlarning sifat tavsiflari.2-jadval**

| Guruh | Sifat tavsifi | Mazmuni |
|---|---|---|
| Asosiy | Ahamiyatlilik | Bashorat qilish va tasdiqlovchi qiymat; moddiylik |
| Asosiy | To‘g‘ri aks ettirish | To‘liqlik, betaraflik, xatolardan holi bo‘lish |
| Takomillashtiruvchi | Taqqoslanuvchanlik | Tashkilotlar va davrlar o‘rtasida solishtirish imkoniyati |
| Takomillashtiruvchi | Tekshiriluvchanlik | Mustaqil kuzatuvchilar bir xil xulosaga kelishi |
| Takomillashtiruvchi | O‘z vaqtidalik | Ma’lumotning qaror qabul qilish uchun o‘z vaqtida mavjudligi |
| Takomillashtiruvchi | Tushunarlilik | Ma’lumotning aniq va ixcham tasniflanishi va taqdim etilishi |

*Manba: IFRS Konseptual asoslari (2018) asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Asosiy tavsiflarga ahamiyatlilik va to‘g‘ri aks ettirish kiradi. Ma’lumot foydalanuvchilarning qarorlariga ta’sir ko‘rsata olsa, ya’ni bashorat qilish yoki tasdiqlovchi qiymatga ega bo‘lsa, u ahamiyatli hisoblanadi. Ahamiyatlilikning tashkilotga xos jihati – moddiylik: ma’lumotni tushirib qoldirish yoki noto‘g‘ri

[10]Alexander D., Britton A., Jorissen A. International Financial Reporting and Analysis. – 5th ed. – Andover: Cengage Learning, 2011.
[11]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 2-bob (Chapter 2): Qualitative characteristics of useful financial information.

ko‘rsatish foydalanuvchilar qarorlariga ta’sir qilishi mumkin bo‘lsa, u moddiy sanaladi.[12] To‘g‘ri aks ettirish ma’lumotning to‘liq, betaraf va xatolardan holi bo‘lishini talab qiladi. 2018-yilgi tahrirda ehtiyotkorlik tushunchasi betaraflikni qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida qayta kiritildi.[13]

Takomillashtiruvchi tavsiflar – taqqoslanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, o‘z vaqtidalik va tushunarlilik – ma’lumotning foydaliligini oshiradi, biroq o‘zi mustaqil ravishda ma’lumotni foydali qila olmaydi.[14] Bundan tashqari, foydali hisobot taqdim etish xarajatlari bilan bog‘liq cheklov (cost constraint) ham hisobga olinadi: ma’lumotni tayyorlash va undan foydalanish xarajatlari olinadigan naf bilan asoslanishi lozim.

Tahlil O‘zbekistonda MHXSga o‘tish jarayoni huquqiy jihatdan izchil mustahkamlanganini ko‘rsatdi. «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonun milliy hisob tizimini xalqaro standartlar bilan uyg‘unlashtirishning asosiy huquqiy asosini yaratdi. 2020-yil 24-fevraldagi Prezident qarori esa tijorat banklari, aksiyadorlik jamiyatlari va qonunchilikda belgilangan boshqa tashkilotlar uchun moliyaviy hisobotni MHXS asosida tayyorlash va e’lon qilish majburiyatini belgiladi.[15] Olingan natijalar MHXS va milliy hisob yondashuvlari o‘rtasida tamoyilli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi (3-jadval). An’anaviy yondashuv asosan davlat nazorati va soliqqa tortish ehtiyojlariga xizmat qilsa, MHXS investorlar va kreditorlar ehtiyojiga yo‘naltirilgan, iqtisodiy mohiyatning huquqiy shakldan ustunligiga tayanadi.[16]

[12]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 2.6–2.11-bandlar (relevance).
[13]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 2.12–2.19-bandlar (faithful representation).
[14]IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018. – 2.23–2.38-bandlar (enhancing qualitative characteristics).
[15]O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.
[16]Epstein B.J., Jermakowicz E.K. Wiley IFRS 2010: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2010.

**Milliy yondashuv va MHXS yondashuvining qiyosiy xususiyatlari.3-jadval**

| Mezon | An’anaviy milliy yondashuv | MHXS yondashuvi |
|---|---|---|
| Asosiy foydalanuvchi | Davlat organlari, soliq va statistika | Investorlar, kreditorlar va boshqa qarz beruvchilar |
| Asosiy maqsad | Qoidalarga muvofiqlik | Iqtisodiy mohiyatni to‘g‘ri aks ettirish |
| Baholash | Asosan tarixiy qiymat | Tarixiy qiymat bilan birga haqiqiy qiymat |
| Professional mulohaza | Cheklangan | Keng qo‘llaniladi va ochib beriladi |
| Axborotni ochib berish | Qisqa, shakllangan | Kengaytirilgan izohlar va tushuntirishlar |

*Manba: adabiyotlar tahlili asosida muallif tomonidan tuzilgan.*

Sifat tavsiflari o‘rtasida ziddiyatli munosabatlar ham mavjud. Masalan, haqiqiy qiymat bo‘yicha baholash ma’lumotning ahamiyatliligini oshiradi, ammo faol bozor bo‘lmagan sharoitda taxminlar ko‘payib, tekshiriluvchanlik va to‘g‘ri aks ettirish pasayishi mumkin. Shu sababli standartlarni qo‘llashda professional mulohazaning roli ortadi, bu esa tayyorlovchilar malakasiga yuqori talab qo‘yadi.[17]

O‘zbekiston sharoitida MHXSni joriy etishning asosiy muammolari sifatida quyidagilarni ajratish mumkin: malakali mutaxassislarning yetishmasligi; haqiqiy qiymatni aniqlash uchun baholash infratuzilmasining rivojlanmaganligi; kichik biznes subyektlari uchun standartlarning murakkabligi; hisobotni tayyorlash xarajatlarining yuqoriligi. Kichik va o‘rta korxonalar uchun MHXSning soddalashtirilgan versiyasi (IFRS for SMEs) mavjudligi bu muammoni qisman hal qilishi mumkin.[18]

[17]Schipper K. Principles-Based Accounting Standards // Accounting Horizons. – 2003. – Vol. 17, No. 1. – P. 61–72.
[18]IFRS Foundation. IFRS for SMEs Accounting Standard. – London: IFRS Foundation.

Amaliy tavsiyalar: (1) kadrlarni tayyorlash va xalqaro sertifikatlash (ACCA, DipIFR) tizimini kengaytirish; (2) hisobot tayyorlovchilar uchun milliy tilda metodik qo‘llanmalar va standartlarning rasmiy tarjimasini muntazam yangilab borish; (3) sifat tavsiflarini auditorlik tekshiruvi mezonlari bilan bog‘lash; (4) kichik biznes uchun bosqichma-bosqich o‘tish mexanizmini ishlab chiqish. Tadqiqot natijalari normativ tahlilga asoslangani uchun kelgusida korxonalar hisobotlari asosida empirik tadqiqotlar o‘tkazish maqsadga muvofiq.

## XULOSA

Tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, MHXSning asosiy maqsadi kapital bozori ishtirokchilari uchun yuqori sifatli, taqqoslanuvchan va shaffof moliyaviy ma’lumotlarni taqdim etishdir. Uning vazifalari – ma’lumotlarni uyg‘unlashtirish, axborot assimmetriyasini kamaytirish, kapital jalb etishni osonlashtirish, milliy tizimlarni isloh qilish va yagona uslubiy asos yaratishdan iborat. Moliyaviy ma’lumotlarning sifat tavsiflari – ahamiyatlilik va to‘g‘ri aks ettirish (asosiy), taqqoslanuvchanlik, tekshiriluvchanlik, o‘z vaqtidalik va tushunarlilik (takomillashtiruvchi) – hisobot foydaliligining mezoni bo‘lib xizmat qiladi. O‘zbekistonda MHXSni samarali joriy etish uchun huquqiy bazani mustahkamlash bilan bir qatorda kadrlar malakasini oshirish va hisobotni ishonchli e’lon qilish tizimini rivojlantirish zarur.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1.O‘zbekiston Respublikasining 2016-yil 13-apreldagi O‘RQ-404-son «Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida»gi Qonuni.
2.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-son «Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori.

3. IFRS Foundation. Conceptual Framework for Financial Reporting. – London: IFRS Foundation, 2018.
4. IFRS Foundation. Constitution. – London: IFRS Foundation.
5. IASB. IAS 1 «Presentation of Financial Statements». – London: IFRS Foundation.
6. IFRS Foundation. IFRS for SMEs Accounting Standard. – London: IFRS Foundation.
7. Alexander D., Britton A., Jorissen A. International Financial Reporting and Analysis. – 5th ed. – Andover: Cengage Learning, 2011.
8. Epstein B.J., Jermakowicz E.K. Wiley IFRS 2010: Interpretation and Application of International Financial Reporting Standards. – Hoboken: John Wiley & Sons, 2010.
9. Barth M.E., Landsman W.R., Lang M.H. International Accounting Standards and Accounting Quality // Journal of Accounting Research. – 2008. – Vol. 46, No. 3. – P. 467–498.
10. Schipper K. Principles-Based Accounting Standards // Accounting Horizons. – 2003. – Vol. 17, No. 1. – P. 61–72.
11. IFRS Foundation rasmiy veb-sayti: www.ifrs.org